

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLUZIV TA'LIMNI TASHKIL
ETISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

Xayrullayeva Dilnoza Latif qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

103-guruh 1-bosqich magistranti

Email: dilnozaxayrullayeva67@gmail.com

Tel; + 998889584949

Ilmiy rahbar: **Utayeva Iroda Baxodirovna**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa

doktori PhD, professor v.b

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida inkluziv ta'limni samarali tashkil etishda o'qituvchining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan ya'ni inkluziv ta'lim sharoitida pedagogning kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati, psixologik bilimlari hamda individual yondashuvni amalga oshirish qobiliyati muhim omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy rivojlanish yo'nalishlari va zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inkluziv ta'lim, pedagogik kompetensiya, individual yondashuv, kasbiy rivojlanish, maxsus ehtiyojli o'quvchilar, ta'lim sifati.

Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida inkluziv ta'lim masalasi dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Inkluziv ta'lim – bu barcha bolalarning, jumladan, maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarning umumta'lim muassasalarida teng huquqli ta'lim olishlarini ta'minlashga qaratilgan tizimdir. Bunday sharoitda o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil eta olishi lozim. Shu bois inkluziv ta'lim sharoitida pedagogning kasbiy mahoratini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir va bu vazifalarni qo'llay olish eng muhim vazifalardan biri sanaladi.

Inkluziv ta'limning mazmun-mohiyati

Inkluziv ta'lim g'oyasi insonparvarlik, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanadi. Uning asosiy maqsadi – har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga sharoit yaratishdir va bunday vazifalarni jamiyatimiz qo'llab-quvvatlaydi.

Inklyuziv ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

ta'limda teng imkoniyat yaratish;
diskriminatsiyaning oldini olish;
individual yondashuvni ta'minlash;
ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlash.

Bu jarayonda o'qituvchi markaziy figura hisoblanadi. Chunki u ta'lim mazmunini moslashtiradi, metodlarni tanlaydi va sinfdagi psixologik muhitni boshqaradi va bu vazifalarning barchasi o'qituvchining salohiyatiga bog'liq.

Pedagogik kompetensiya tushunchasi va uning tarkibi

Pedagogik kompetensiya – bu o'qituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

1. Kasbiy-metodik kompetensiya

O'qituvchining fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, o'quv dasturini moslashtira olishi, differensial va individual topshiriqlar ishlab chiqishi zarur. Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan o'quv materiallari tayyorlash ham ushbu kompetensiyaning muhim jihatidir.

2. Psixologik-pedagogik kompetensiya

Pedagog o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, rivojlanish darajasini hisobga olishi kerak. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda sabr-toqat, empatiya va ijobiy munosabat muhim rol o'ynaydi.

3. Kommunikativ kompetensiya

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat o'quvchilar, balki ota-onalar, psixologlar va defektologlar bilan ham hamkorlik qiladi. Shuning uchun samarali muloqot qilish ko'nikmasi muhim ahamiyatga ega.

4. Refleksiv kompetensiya

O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qila olishi, xatolarini aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini topa bilishi zarur. Bu kasbiy o'sishning muhim omilidir.

Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik kompetensiyani rivojlantirish yo'llari
Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Malaka oshirish kurslari

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim bo'yicha tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari o'qituvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini boyitadi.

2. Seminar va treninglar

Interaktiv seminarlar, amaliy mashg'ulotlar va treninglar o'qituvchilarga real vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Ilg'or tajribalarni o'rganish

Tajribali pedagoglarning ish faoliyatini kuzatish, metodik birlashmalarda faol ishtirok etish kompetensiyani oshirishga xizmat qiladi.

4. O'z-o'zini rivojlantirish

Pedagogning mustaqil ravishda ilmiy adabiyotlar o'qishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganishi, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishi muhimdir.

Inklyuziv ta'limda yuzaga keladigan muammolar

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni joriy etishda bir qator muammolar mavjud:

o'qituvchilarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi ya'ni o'qituvchi yetarlicha tayyorgarlikka ega bo'lmasa u holda inklyuziv ta'limda yuzaga kelgan bir qancha muammolarni bartaraf qila olmaydi.

metodik qo'llanmalar yetishmasligi;

sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi;

ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi ya'ni o'qituvchi ota-onalar bilan aloqa o'rnatmasligi bunga misol bo'lib keladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv va davlat darajasida qo'llab-quvvatlash zarurdir.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlay olamanki umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda o'qituvchining pedagogik kompetensiyasiga bevosita bog'liq deb xisoblayman ya'ni zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, psixolog va maslahatchi sifatida ham faoliyat yuritadi. Shuning uchun uning kasbiy mahoratini muntazam ravishda rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati, avvalo, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, insonparvarlik qadriyatlariga sodiqligi va innovatsion yondashuvlarni qo'llay olish qobiliyatiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
3. Mavlonova R., To'raeva O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
5. Назарова Н.М. Специальная педагогика. – Москва: Академия, 2016.
6. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Inclusion. – Paris, 2005